TEMIR YO‘L SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA’MINLASHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Bekmurodov Ulug‘bek Bahrom o‘g‘li
Sh.Rashidov nomidagi SamDU
ulugbekmurodov1987@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur tezisda temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta’minlashning metodologik jihatlari tadqiq etilgan. Temir yo‘l korxonalarining rivojlanishini faqat tashish hajmi yoki alohida moliyaviy natijalar asosida baholashning cheklanganligi asoslanib, ishlab chiqarish, resurs, investitsion, innovatsion, texnologik, mehnat va institutsional omillarni o’zaro bog‘liq holda hisobga olish zarurligi ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *temir yo‘l transporti, sanoat korxonasi, innovatsion rivojlanish, investitsiya, texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish, resurslar samaradorligi, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlik, raqobatbardoshlik.*

Abstract. *This thesis examines the methodological aspects of ensuring the innovative development of railway industry enterprises. It substantiates the limitations of assessing the development of railway enterprises solely on the basis of transportation volumes or individual financial results and demonstrates the need to consider production, resource, investment, innovation, technological, labor, and institutional factors in an interconnected manner.*

Keywords: *railway transport, industrial enterprise, innovative development, investment, technological modernization, digitalization, resource efficiency, labor productivity, economic efficiency, competitiveness.*

Аннотация. *В данном тезисе исследованы методологические аспекты обеспечения инновационного развития предприятий железнодорожной отрасли. Обоснована ограниченность оценки развития железнодорожных предприятий исключительно на основе объемов перевозок или отдельных финансовых результатов, а также показана необходимость комплексного учета взаимосвязанных производственных, ресурсных, инвестиционных, инновационных, технологических, трудовых и институциональных факторов.*

Ключевые слова: *железнодорожный транспорт, промышленное предприятие, инновационное развитие, инвестиции, технологическая модернизация, цифровизация, эффективность использования ресурсов, производительность труда, экономическая эффективность, конкурентоспособность.*

Asosiy qism. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda temir yo‘l transporti korxonalarining rivojlanishini ta’minlash masalasi transport xizmatlari hajmini oshirish yoki tashish jarayonlarining texnik parametrlarini yaxshilash bilan cheklanmaydi. Temir yo‘l korxonalarining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish-iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish, mavjud resurslardan foydalanish darajasini oshirish, investitsion va innovatsion faollikni kuchaytirish, texnologik bazani modernizatsiya qilish, mehnat unumdorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarining iqtisodiy natijadorligini ta’minlash bilan bog‘liq [1].

Temir yo‘l transportining ushbu xususiyatlari uni sanoat iqtisodiyotining alohida tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Bunday yondashuvda temir yo‘l korxonasi faqat tashish xizmatlarini amalga oshiruvchi subyekt emas, balki ishlab chiqarish resurslari, kapital, mehnat, texnologiya, innovatsiya va boshqaruv omillarining o‘zaro ta’siri natijasida iqtisodiy qiymat yaratuvchi murakkab sanoat-iqtisodiy tizim sifatida namoyon bo‘ladi.

Temir yo‘l korxonalarining iqtisodiy rivojlanishi ko‘p omilli xususiyatga ega. Ishlab chiqarish quvvati, asosiy fondlarning texnik holati, mehnat resurslari, investitsiyalar hajmi, innovatsion faollik, texnologik yangilanish, boshqaruv sifati va bozor talabi korxonaning yakuniy natijalariga o‘zaro bog‘liq holda ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli innovatsion rivojlanish metodologiyasi tizimli, kompleks, resurslarga yo‘naltirilgan, innovatsion, investitsion va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvlarning uyg‘unlashuviga asoslanishi lozim.

Tizimli yondashuv temir yo‘l korxonasini o‘zaro bog‘langan elementlardan tashkil topgan yaxlit iqtisodiy tizim sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Bunda ishlab chiqarish, moliya, investitsiya, innovatsiya, mehnat, texnologiya va boshqaruv jarayonlari alohida emas, balki yagona tizimning tarkibiy qismlari sifatida baholanadi. Mazkur yondashuvning ahamiyati shundaki, iqtisodiy natijaning o‘zgarishini faqat bitta omil bilan izohlashdan voz kechilib, unga ta’sir qiluvchi omillar majmuasi aniqlanadi.

Kompleks yondashuv esa korxona rivojlanishining iqtisodiy, texnologik, moliyaviy, tashkiliy va innovatsion jihatlarini birgalikda baholashni nazarda tutadi.

Masalan, texnologik modernizatsiyaning amalga oshirilishi zarur investitsion resurslar, malakali kadrlar va tegishli boshqaruv mexanizmlari bilan ta’minlanmasa, kutilgan iqtisodiy samarani bermasligi mumkin. Shu sababli innovatsiya korxona faoliyatining alohida elementi emas, balki boshqa iqtisodiy jarayonlar bilan integratsiyalashgan rivojlanish vositasi sifatida talqin qilinishi maqsadga muvofiq.

Temir yo‘l sanoat korxonalarini rivojlantirishda **resurslarga yo‘naltirilgan yondashuv** ham alohida ahamiyatga ega. Korxonaning asosiy fondlari, harakat tarkibi, infratuzilma obyektlari, mehnat, energetika, moliyaviy va axborot resurslarining mavjudligi rivojlanish uchun zarur shart hisoblansa-da, resurslarning o‘zi yuqori iqtisodiy natijani kafolatlamaydi. Asosiy masala ularning qanday samaradorlik bilan ishlatilayotganidadir. Shu sababli resurslarning mutlaq hajmi bilan bir qatorda fond qaytimi, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, energiya va xarajatlar samaradorligi kabi nisbiy ko‘rsatkichlardan foydalanish talab etiladi.

Temir yo‘l sanoat korxonalari faoliyatini baholash metodologiyasi ham mazkur tamoyilga muvofiq shakllantirilishi lozim. Korxona faoliyatini faqat tashish hajmi, tonna-kilometr yoki yo‘lovchi-kilometr ko‘rsatkichlari orqali baholash uning haqiqiy iqtisodiy samaradorligini to‘liq ifodalamaydi. Tashish hajmining ortishi bir vaqtning o‘zida xarajatlarning yuqoriroq sur’atlarda o‘sishi bilan kechishi mumkin. Shu bois ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari moliyaviy, resurs, investitsion va innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qilinishi kerak.

Mazkur nuqtayi nazardan korxona faoliyatini baholashni quyidagi mantiqiy bog‘liqlik asosida tashkil etish maqsadga muvofiq:

kirish resurslari → ishlab chiqarish va innovatsion jarayonlar → iqtisodiy natijalar.

Kirish resurslariga asosiy fondlar, mehnat resurslari, moliyaviy kapital, investitsiyalar, energiya va moddiy resurslar, axborot texnologiyalari hamda innovatsion salohiyat kiradi. Ishlab chiqarish jarayoni ushbu resurslardan foydalanish, tashish va xizmat ko‘rsatish, texnik xizmat, ta’mirlash, texnologik modernizatsiya, boshqaruv va innovatsiyalarni joriy etishni qamrab oladi. Natijaviy blok esa ishlab chiqarish va tashish hajmi, daromad, foyda, mehnat unumdorligi, rentabellik, aktivlar va xarajatlar samaradorligi, raqobatbardoshlik hamda innovatsion rivojlanish natijalaridan iborat.

Temir yo‘l sanoatining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillarning ko‘pligi ularni ilmiy jihatdan tizimlashtirish zaruratini yuzaga keltiradi. Omillarni faqat ichki va tashqi guruhlarga ajratish yetarli emas. Ularning kelib chiqishi,

boshqarilish darajasi, ta’sir muddati, iqtisodiy mazmuni va natijaga ta’sir qilish xususiyatini ham hisobga olish lozim.

1-jadval. Temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar

1	Asosiy elementlar	Ta’sir obyekti	Kutiladigan iqtisodiy natija
Ishlab chiqarish-texnik	asosiy fondlar, ishlab chiqarish quvvati, texnik jihozlanganlik	ishlab chiqarish jarayoni	unumdorlik va quvvatlardan foydalanishning oshishi
Investitsion	kapital qo‘yilmalar, modernizatsiya loyihalari	asosiy fondlar va texnologiyalar	texnologik yangilanish
Innovatsion-texnologik	yangi texnologiyalar, avtomatlashtirish, raqamlashtirish	ishlab chiqarish va boshqaruv	xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish
Mehnat	malaka, mehnat unumdorligi, qayta tayyorlash	inson kapitali	mehnat natijadorligini oshirish
Moliyaviy-iqtisodiy	daromad, xarajat, foyda, rentabellik	moliyaviy barqarorlik	iqtisodiy samaradorlik
Institutsional	davlat siyosati, qonunchilik, tarif va raqobat muhiti	korxonaning faoliyat muhiti	investitsion va bozor faolligi
Bozor	talab, taklif, xizmat sifati, raqobat	bozor pozitsiyasi	tushum va raqobatbardoshlik
Tashqi iqtisodiy	xalqaro savdo, tranzit, geoiqtisodiy sharoit	tashqi talab	tranzit va eksport salohiyati
Ekologik	energiya samaradorligi, ekologik talablar, yashil texnologiyalar	barqaror rivojlanish	resurs tejamkorligi va uzoq muddatli barqarorlik

Keltirilgan klassifikatsiya innovatsion rivojlanishni biror alohida texnologiya yoki investitsiya loyihasining natijasi sifatida emas, balki turli omillarning o‘zaro ta’siridan shakllanuvchi kompleks iqtisodiy jarayon sifatida baholash imkonini beradi. Ayniqsa, boshqariladigan omillarni tashqi muhit omillaridan ajratish

korxona darajasida boshqaruv qarorlarining ustuvor yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga institutsional muhit ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1006-son “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonunida qonuniylik, xavfsizlik, ochiqlik va shaffoflik, barqarorlik, ekologik tozalik, xizmatlarning qulayligi va sifati, infratuzilmadan foydalanishdagi tenglik hamda uning uzluksiz ishlashi temir yo‘l transporti faoliyatining asosiy prinsiplari sifatida belgilangan [2].

Mazkur tamoyillar sanoat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan korxonalarning innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi institutsional shart-sharoitlarni shakllantiradi. Infratuzilmadan teng foydalanish raqobat muhitini rivojlantirishga, ochiqlik va shaffoflik investitsion jozibadorlikni kuchaytirishga, xizmat sifati bozor talabini qondirishga, ekologik talablar esa uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu jihatdan temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini faqat korxona ichidagi texnologik o‘zgarishlar bilan bog‘lash metodologik jihatdan yetarli emas. Makroiqtisodiy va institutsional muhit, investitsiya sharoitlari, transport xizmatlari bozori va davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari korxona darajasidagi innovatsion jarayonlarning natijadorligini belgilovchi tashqi omillar sifatida hisobga olinishi kerak.

Olib borilgan nazariy umumlashtirish asosida temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini quyidagi konseptual ketma-ketlik orqali ifodalash taklif etiladi:

INVESTITSIYA: Texnologik yangilanish – Raqamlashtirish va innovatsiya – Resurslardan foydalanish samaradorligi – Mehnat va kapital unumdorligi-Iqtisodiy samaradorlik – Raqobatbardoshlik – Barqaror innovatsion rivojlanish.



1-rasm. Sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishi.

Mazkur bog‘liqlikning iqtisodiy mazmuni shundan iboratki, investitsiyalar asosiy fondlarni yangilash, yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamli

transformatsiya uchun moddiy-moliyaviy asos yaratadi. Texnologik yangilanish ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Resurs samaradorligining oshishi mehnat va kapital unumdorligida, keyinchalik esa xarajatlarning optimallashuvi, rentabellik va iqtisodiy samaradorlikning yaxshilanishida namoyon bo‘ladi. Ushbu natijalar korxonaning raqobatbardoshligi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqot doirasidagi birinchi ilmiy natija sifatida **temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini baholashda alohida texnik yoki moliyaviy ko‘rsatkichlardan kompleks resurs–jarayon–natija yondashuviga o‘tish zarurati metodologik jihatdan asoslanadi**.

Ikkinchi ilmiy natija sifatida esa **innovatsion rivojlanish omillarining korxona ichki resurslari, innovatsion-transformatsion jarayonlari, natijaviy ko‘rsatkichlari va tashqi institutsional muhit o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi tizimlashtiriladi**. Bunday yondashuv keyingi bosqichlarda omillarning natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini statistik va ekonometrik usullar yordamida miqdoriy baholash uchun metodologik asos yaratadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin.

Birinchidan, temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini faqat tashish hajmining o‘sishi yoki yangi texnologiyaning joriy etilishi bilan baholash yetarli emas. Rivojlanish ishlab chiqarish, moliyaviy, investitsion, innovatsion, texnologik va mehnat ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liq tizimi asosida baholanishi lozim.

Ikkinchidan, innovatsion rivojlanish metodologiyasida tizimli, kompleks, resurslarga yo‘naltirilgan, investitsion, innovatsion va natijaga yo‘naltirilgan yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda innovatsiyaning mavjudligi emas, uning iqtisodiy natijaga aylanish darajasi asosiy baholash mezonlaridan biri bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishiga ta’sir qiluvchi omillarni ishlab chiqarish-texnik, investitsion, innovatsion-texnologik, mehnat, moliyaviy, bozor, institutsional, tashqi iqtisodiy va ekologik guruhlar bo‘yicha tizimlashtirish boshqaruv qarorlarini shakllantirish uchun metodologik asos yaratadi.

To‘rtinchidan, investitsiya, texnologik yangilanish, raqamlashtirish, resurslardan foydalanish samaradorligi, mehnat va kapital unumdorligi, iqtisodiy

samaradorlik hamda raqobatbardoshlik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni hisobga olish temir yo‘l sanoat korxonalarining innovatsion rivojlanishini boshqarishning konseptual asosi sifatida qo‘llanishi mumkin.

Beshinchidan, keyingi tadqiqot bosqichlarida mazkur metodologik yondashuvni temir yo‘l sanoat korxonalarining real iqtisodiy ko‘rsatkichlari asosida empirik tekshirish, natijaviy ko‘rsatkichlar va ularga ta’sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni miqdoriy baholash hamda tegishli ekonometrik modellarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Temir yo‘l transporti korxonalarini rivojlantirishga metodologik yondashuvlar bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.1-bo‘lim.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-noyabrdagi O‘RQ-1006-son “Temir yo‘l transporti to‘g‘risida”gi Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ-706-son “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktabrdagi PQ-329-son “O‘zbekiston Respublikasi temir yo‘l transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
5. Temir yo‘l sanoatidagi korxonalar faoliyatini baholash uslubiy yo‘llari bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.2-bo‘lim.
6. Temir yo‘l transporti sanoatiga ta’sir etuvchi omillar klassifikatsiyasi bo‘yicha tadqiqot materiallari. 1.4-bo‘lim.